

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SOĞ'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH

Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich

Andijon davlat texnika instituti,

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

m.juraxonov@astiedu.uz. +998905279498

ORCID: 0009-0006-9485-303X



Abstract. This article considers the effective use of export potential in ensuring the sustainable development of small businesses and entrepreneurship. The foreign economic activities of small business and entrepreneurship entities operating in the Republic of Uzbekistan are analyzed, and the sector's indicators in this area in recent years are studied. The export coverage coefficient is examined to assess the effectiveness of the foreign economic activities of small business and entrepreneurship entities. This coefficient is also studied across the regions of the republic. Based on the results of the analysis, practical proposals for the development of the sector are provided.

Keywords: small business and entrepreneurship, sustainable development, foreign economic activity, international market, export, import, export potential, export coverage coefficient, efficiency, competitiveness, export revenues.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes va tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta'minlashda eksport salohiyatidan samarali foydalanish masalasi ko'rib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati tahlil qilinib, so'nggi yillarda sohaning ushbu yo'nalishdagi ko'rsatkichlari o'rganilgan. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini baholashda eksportni qoplash koeffitsiyenti o'rganilgan. Ushbu koeffitsiyent respublika hududlari bo'yicha ham o'rganilgan. Amalga oshirilgan tahlil natijalari asosida sohani rivojlantirishga oid amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes va tadbirkorlik, barqaror rivojlanish, tashqi iqtisodiy faoliyat, xalqaro bozor, eksport, import, eksport salohiyati, eksportni qoplash koeffitsiyenti, samaradorlik, raqobatdoshlik, eksport tushumlari.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос эффективного использования экспортного потенциала для обеспечения устойчивого развития малого бизнеса и предпринимательства. Анализируется внешнеэкономическая деятельность субъектов малого бизнеса и предпринимательства, функционирующих в Республике Узбекистан, и изучаются показатели сектора в данной области за последние годы. Для оценки эффективности внешнеэкономической деятельности субъектов малого бизнеса и предпринимательства изучается коэффициент покрытия экспорта. Данный коэффициент также изучается по регионам республики. На основе результатов анализа даются практические предложения по развитию сектора.

Ключевые слова: малый бизнес и предпринимательство, устойчивое развитие, внешнеэкономическая деятельность, международный рынок, экспорт, импорт, экспортный потенциал, коэффициент покрытия экспорта, эффективность, конкурентоспособность, экспортная выручка.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari va xalqaro raqobatning kuchayishi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash masalasi o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonda eksport salohiyatini oshirish muhim omil sifatida namoyon bo'lib, u kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi, valyuta tushumlarini ko'paytirishga xizmat qiladi hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini yanada mustahkamlaydi. Shu bois, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishini ularning eksport salohiyatini oshirish orqali ta'minlash masalasi soha faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Bu borada Prezident Sh.M. Mirziyoyevning kichik biznes subyektlari va eksportni qo'llab-quvvatlashga oid quyidagi fikri soha rivojining davlat darajasida muhim ekanligini ko'rsatadi: “Eksportyor korxonalarni qo'llab-quvvatlash, kichik biznesni eksport faoliyatiga keng jalb etish borasida ham boshlagan islohotlarimiz qat'iy davom ettiriladi” [1].

Shu bilan birga, Prezident Sh.M. Mirziyoyevning nutq va ma'ruzalarida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda eksportni rivojlantirishga oid keltirilgan fikr va g'oyalarni umumlashtirgan holda quyidagilarni ta'kidlash maqsadga muvofiq: mamlakatimiz iqtisodiyotining eksport salohiyatini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati muhim rol o'ynaydi. Bu sohada ularning tashqi bozorlarga bemalol chiqa olishlari hamda o'z mahsulotlarini eksport qila olishlari uchun imkoniyat yaratish bugungi kunda iqtisodiyotimiz oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va ularning eksport salohiyatini oshirish masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy mutaxassislar hamda tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ular tomonidan sohaning mazmun-mohiyati, iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati, uning barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan bir qatorda, ushbu subyektlarning eksport faoliyati hamda eksport salohiyatiga oid fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining asosiy maqsadi ko'zlangan natijaga erishish, aniqrog'i, kapital va resurslardan samarali foydalanish orqali yuqori darajada foyda olishga qaratiladi.

A.A. Savichev kichik va o'rta biznesning barqaror rivojlanishi deganda korxona barqarorligi hamda moliyaviy-iqtisodiy o'sishining o'zaro mutanosibligi bilan namoyon bo'luvchi kichik va o'rta biznes faoliyatidagi miqdor va sifat ko'rsatkichlarining ijobiy o'zgarishlarini tushunish kerakligini e'tirof etadi [2].

Perulik akademik Delgadillo Portocarrero o'z tadqiqotlarida kichik korxonalar uchun xalqaro bozorlarda o'z o'rnini topish masalasi murakkab ekanligini va, o'z navbatida, unda o'z o'rnini saqlab qolish muhimligini ta'kidlab, bu borada kichik va mikro korxonalar eksport strategiyasini ishlab chiqish orqali xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniga ega bo'lishlarini qayd etadi [3].

Rossiyalik mutaxassis Ye.L. Yemelyanovanning fikrlariga ko'ra, kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatini rivojlantirishda xalqaro ko'rgazmalar va ishbilarmonlik missiyalarini tashkil etish, yirik va kichik biznes o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirish hamda axborot-maslahat infratuzilmasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur chora-tadbirlar kichik biznesning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va uning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi [4].

Mahalliy mutaxassislar S.Sh. To'rabekov va M.M. Muxammedovlar: "Mamlakatning tashqi savdo aloqalarini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada yuksaltirish, ushbu sektorning tashqi savdo aylanmasidagi ulushini keskin oshirish muhim rol o'ynaydi", deb fikr bildirganlar [5].

A. Abduqahhorovning fikricha, "kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish, ularning mahsulotlari va xizmatlarini xalqaro bozorlarda ilgari surish orqali mamlakatning tashqi savdo saldosi yaxshilash, valyuta tushumlarini ko'paytirish va yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Biroq bu jarayonda kichik biznes subyektlari turli to'siqlarga duch keladi, jumladan, mahsulotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, marketing va logistika masalalarini hal etish, shuningdek, moliyaviy va axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi kabi muammolar mavjud" [6].

U.V. G'ofurov o'z tadqiqotlarida "kichik biznes subyektlarining tashqi savdo faoliyatidagi ishtiroki yirik korxonalarga qaraganda sezilarli darajada cheklanishini bildirib, buning sababi sifatida eksportga mo'ljallangan yirik tovar ishlab chiqaruvchi tomonidan olinuvchi miqyosdan ijobiy samara, mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi doimiy xarajatlar va tranzaksiya xarajatlar qiymatining nisbatan pastligi yirik korxonalar mahsulotlari tannarxini pasaytirib, boshqa teng sharoitlarda kichik biznes subyektlariga nisbatan raqobatbardoshlik darajasini oshiradi", deb ta'kidlaydi. Shuni hisobga olgan holda, "kichik biznesni rivojlantirish va uning eksport salohiyatini oshirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalarining ahamiyati yuqori ekanligini" ta'kidlagan [7].

Yuqorida bayon etilgan ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash joizki, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini faollashtirish, ularning eksport salohiyatini izchil ravishda oshirish hamda mintaqaviy va jahon bozorlariga integratsiyalashuvini kengaytirish masalalari strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishlar nafaqat sohaning raqobatbardoshligini ta'minlash, balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan ham ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, ushbu masalalarni hal etishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyatga ega [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kichik biznes va tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini eksport salohiyatini oshirish orqali ta'minlash masalasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tadqiqotni amalga oshirishda bir qator ilmiy



usullardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash, solishtirma tahlil, tanlanma kuzatuv, iqtisodiy-matematik yondashuvlar hamda olingan ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish usullari qo'llanildi.

Tadqiqot uchun ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, rasmiy hisobotlar va tahliliy materiallardan foydalanildi. Tadqiqot davri 2016–2025-yillarni qamrab olgan bo'lib, maqola matnini tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini liberallashtirish, eksportga yo'naltirilgan savdo siyosatini yuritish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish orqali jahon bozorida barqaror o'rin egallash muhim hisoblanadi. Bunga erishishda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining o'rni va ahamiyati yuqori bo'lib, mazkur maqsadga ushbu subyektlarning eksport faoliyati hamda salohiyatini oshirish orqali erishiladi.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda eksport salohiyatiga oid ma'lumotlarni o'rganishdan avval O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini baholash va ularning salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi muhim omillarni o'rganish maqsadga muvofiq. Bu borada kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari eksporti va importining umumiy hajmi, shuningdek, soha vakillarining mamlakat eksporti va importidagi ulushlari tahlil qilinadi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi kichik biznes va tadbirkorlik (KBT) subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari tahlili [10].

Ko'rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
KBT subyektlari eksport xajmi (mln. AQSH dollari)	3139,2	2759,3	3810,8	4714,8	3100,9	3335,2	6157,5	6938,3	9302,5	12382,6
KBT subyektlari eksportdagi ulushi (%)	26	22	27,2	27	20,5	20	31,2	27,9	34,1	36,6
KBT subyektlari import xajmi (mln. AQSH dollari)	5676,8	7511,9	10916	14972	10943	11534	15217	19528	19885	25390
KBT subyektlari importdagi ulushi (%)	50,1	62,4	63,1	68,5	54,9	48,6	53,9	54,9	56,3	60,3

2016–2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) eksporti hajmi o'sganligini jadval ma'lumotlari asosida ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2016-yilda 3 139,2 mln AQSH dollarini tashkil etgan eksport hajmi 2025-yilga kelib 12 382,6 mln AQSH dollariga yetgan. Bu esa mazkur sohaning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'rni tobora ortib borayotganligini namoyon etadi.

O'z navbatida, shuni aytish kerakki, 2020-yilda eksport hajmining 3 100,9 mln AQSH dollarigacha pasayishi pandemiya sharoitida tashqi savdo aloqalarining cheklanishi va logistika tizimidagi uzilishlar bilan bog'liq bo'lgan. Natijada respublika bo'yicha ushbu ko'rsatkich pasaygan. 2021-yildan boshlab eksport hajmida ijobiy o'sish tendensiyasi shakllangan bo'lib, 2022–2025-yillarda uning 6 157,5 mln AQSH dollaridan 12 382,6 mln AQSH dollarigacha keskin o'sishi kuzatilgan. Bu mamlakatda eksportni qo'llab-quvvatlash siyosatining kuchayishi, tashqi bozorlarga chiqish mexanizmlarining takomillashuvi hamda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligining oshganligi bilan izohlanadi.

Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida belgilangan vazifalar sabab bo'lganligini aytish zarur. Farmonga ko'ra, respublika eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda eksport hajmini 30 mlrd AQSH dollariga, xususi sektorning eksportdagi ulushini esa 60 foizga yetkazish, eksportchi korxonalar faoliyati va mavjud imkoniyatlarini to'liq ishga solgan holda respublika eksport salohiyatini rivojlantirish belgilangan. Bu esa kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida eksport hajmining oshishiga zamin yaratgan. Shu bilan birga, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulotlar eksportidagi ulushini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2016–2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushi o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, respublika bo'yicha mazkur ko'rsatkich 2016-yilda 26 foizni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilga kelib 36,6 foizga yetgan. Ushbu davr oralig'idagi o'rtacha ko'rsatkich 27,3 foizni tashkil etgan. Bu holat kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati tadqiqot davrining boshiga nisbatan oxirida oshganligini ko'rsatadi. Shunday bo'lsa-da, tadqiqot davri mobaynida ushbu ko'rsatkich tebranuvchan xususiyatga ega bo'lganligini aytish o'rinni.

So'nggi yillarda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport hajmi va ulushi ijobiy ko'rinish hosil qilgan holda oshib borayotgan bo'lsa-da, uning hududlar kesimida notekis taqsimlanishi va ayrim hududlarda nisbatan past ko'rsatkichlar saqlanib qolayotgani kuzatilgan. Bu borada mazkur sohani rivojlantirishda hududiy jihatlarga e'tibor qaratish, hududlardagi eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar tarkibini diversifikatsiya qilish zarur hisoblanadi.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlashda eksportning ahamiyati, uning hajmi va soha vakillarining eksportdagi ulushlarini tahlil qilish bilan bir qatorda, kichik biznesning import hajmi va ulushini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu kichik biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini baholash va ularning salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) importi hajmining 2016–2025-yillardagi o'zgarishi mamlakat iqtisodiyotida mazkur sektorning tashqi iqtisodiy faolligi izchil kengayib borayotganligini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan import hajmi 2016-yildagi 5 676,8 mln AQSH dollaridan 2025-yilga kelib 25 390,3 mln AQSH dollariga yetgan bo'lib, bu qariyb 4,5 baravar o'sishni tashkil etadi. Ushbu holat kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatida import resurslariga bo'lgan ehtiyoj yuqori ekanligini hamda iqtisodiyotning tashqi manbalar bilan integratsiyasi kuchayganligini ifodalaydi.

Tahlil natijalari 2016–2019-yillarda ushbu ko'rsatkichda ijobiy o'sish kuzatilganligini, 2020-yilga kelib esa uning ma'lum darajada pasayganligini ko'rsatadi. Jumladan, 2019-yilda import hajmi 14 972,2 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 10 943,3 mln AQSH dollarigacha pasaygan. Bu holat pandemiya ta'siri bilan izohlanadi. Biroq 2021-yildan boshlab ushbu ko'rsatkichning qayta tiklanish jarayoni kuzatilib, 2022–2025-yillarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan.

O'z navbatida, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining mamlakat importidagi ulushi ham ushbu yillar oralig'ida oshgan bo'lib, 2016-yildagi 50,1 foizdan 2025-yilda 60,3 foizga yetgan. Ushbu ko'rsatkich ham yuqoridagi ko'rsatkichlarga mos ravishda tebranuvchan xususiyatga ega bo'lgan. Mazkur holat O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatiga oid ko'rsatkichlar so'nggi yillarda o'sib borayotganligini ko'rsatadi.

Yuqorida O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) eksporti hajmi va ulushlari so'nggi yillarda o'sib, ijobiy ko'rinish hosil qilganligini ko'rib o'tdik. Bu borada ushbu ko'rsatkichlarning samaradorligini baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda miqdor ko'rsatkichlarining sifat jihatidan qanday natija berayotganini baholash imkoniga ega bo'lamiz. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari eksportining importni qoplash koeffitsiyentini hisoblash orqali zarur ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Eksportni qoplash koeffitsiyenti tashqi savdo muvozanatini ifodalovchi asosiy indikator bo'lib, uning dinamikasi orqali iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va tashqi iqtisodiy siyosat samaradorligi baholanadi. Mazkur koeffitsiyentning bir birlikdan yuqori bo'lishi eksport hajmining import hajmidan ustunligini, aksincha, bir birlikdan past bo'lishi esa import hajmining eksport hajmidan yuqori ekanligini anglatadi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida eksportni qoplash koeffitsiyenti tahlili¹

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025	O'rtacha
O'zbekiston Respublikasi	0,6	0,4	0,3	0,3	0,3	0,3	0,4	0,4	0,5	0,5	0,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,7	0,5	0,3	0,5	0,6	0,6	0,5	0,7	0,6	0,7	0,6
Andijon viloyati	1,5	1,0	0,9	0,9	0,9	1,2	1,4	0,5	0,8	0,9	1,0
Buxoro viloyati	0,9	0,8	0,3	0,4	0,4	0,2	0,4	0,3	0,3	0,3	0,4
Jizzax viloyati	1,2	0,9	0,3	0,2	0,1	0,3	0,2	0,1	0,3	0,6	0,4

1 <https://stat.uz/uz/>. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob kitoblari.



Qashqadaryo viloyati	0,8	1,3	0,8	0,5	0,6	0,8	1,0	0,4	0,2	0,4	0,7
Navoiy viloyati	2,1	0,7	0,5	0,1	0,2	0,3	0,2	0,2	0,4	0,1	0,5
Namangan viloyati	0,5	0,5	0,5	0,6	0,5	0,5	0,5	0,4	0,6	0,5	0,5
Samarqand viloyati	0,6	0,4	0,3	0,3	0,4	0,5	0,5	0,3	0,5	0,4	0,4
Surxondaryo viloyati	0,7	0,6	0,5	0,7	0,7	0,8	1,4	1,7	1,7	1,3	1,0
Sirdaryo viloyati	0,6	0,8	0,6	0,3	0,5	0,6	0,6	0,6	0,5	0,4	0,6
Toshkent viloyati	0,5	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4	0,3	0,3	0,3	0,4
Farg'ona viloyati	0,6	0,9	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,4	0,5	0,5	0,5
Xorazm viloyati	0,3	0,5	0,5	0,5	0,6	0,6	0,8	0,8	1,0	1,2	0,7
Toshkent shahri	0,2	0,2	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,2	0,1	0,1
Eng yuqori ko'rsatkich	2,1	1,3	0,9	0,9	0,9	1,2	1,4	1,7	1,7	1,3	1,3
Eng past ko'rsatkich	0,2	0,2	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,2	0,1	0,1
O'rtacha ko'rsatkich	0,8	0,7	0,5	0,4	0,5	0,5	0,6	0,5	0,6	0,6	0,6

2016–2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari eksportining importni qoplash koeffitsiyenti o'zgarish dinamikasi tebranuvchan xususiyatga ega bo'lgan. Jumladan, 2016-yildagi 0,6 birlikdan 2018–2021-yillarda 0,3–0,4 birlikkacha pasaygan, 2022–2025-yillarda esa qisman tiklanib, 0,4–0,5 birlik oralig'ida shakllangan. Shunday bo'lsa-da, tahlil qilingan davr mobaynida koeffitsiyentning o'rtacha qiymati 0,4 birlikni tashkil etgan bo'lib, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport tushumlari import ehtiyojlarini to'liq qoplash darajasiga yetmaganligini ko'rsatadi. Bu holat mamlakatdagi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida import resurslariga yuqori darajada bog'liqlik mavjudligini hamda eksport salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganligini ko'rsatadi.

Mamlakat hududlari bo'yicha eksportni qoplash koeffitsiyentini tahlil qilish orqali sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Eng yuqori o'rtacha ko'rsatkichlar Surxondaryo (1,0) va Andijon (1,0) viloyatlarida kuzatilgan. Andijon viloyatida 2016-yilda koeffitsiyent 1,5 birlikni tashkil etgan bo'lib, keyingi yillarda tebranuvchan xususiyatga ega bo'lgan, ya'ni pasayish va o'sish holatlari takrorlangan. Shunga qaramay, ko'rsatkich 0,8–1,4 birlik oralig'idagi yuqori darajani saqlab qolgan. Bu holat ushbu hududda sanoat kooperatsiyasining rivojlanganligini, eksportbop tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish ulushining yuqoriligini hamda tashqi bozorlarga integratsiyalashuv darajasining nisbatan yuqori ekanligini namoyon etadi.

Surxondaryo viloyatida esa koeffitsiyentning o'zgarishi bir tekis o'sish tendensiyasini namoyon etgan. 2016-yilda mazkur ko'rsatkich 0,7 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2022–2024-yillarda 1,4–1,7 birlikkacha oshgan hamda 2025-yilda 1,3 birlikni tashkil etgan. Bu holat hududning eksport salohiyati tadqiqot davri davomida sezilarli darajada oshganligini, eksport hajmi importga nisbatan tezroq o'sganligini hamda tashqi savdo faoliyati samaradorligi ijobiy ko'rinish hosil qilganligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan viloyatlardan tashqari, o'rtacha koeffitsiyentga teng va undan yuqori ko'rinishdagi ijobiy tendensiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,6), Sirdaryo (0,6), Qashqadaryo (0,7) va Xorazm (0,7) viloyatlarida kuzatilgan. Xususan, Xorazm viloyatida koeffitsiyent 2016-yildagi 0,3 birlikdan 2025-yilda 1,2 birlikkacha oshgan bo'lib, bu eksport faoliyati kengayganligini ko'rsatadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida ushbu koeffitsiyent, asosan, 0,5–0,7 birlik oralig'ida shakllangan. Ushbu hududlar ichida eng yuqori o'zgarish Qashqadaryo viloyatida kuzatilib, koeffitsiyent 0,2–1,3 birlik oralig'ida bo'lgan.

Shu bilan birga, Buxoro (0,4), Jizzax (0,4), Samarqand (0,4) va Toshkent (0,4) viloyatlaridagi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida eksportni qoplash koeffitsiyenti past darajada bo'lgan. Ayniqsa, Toshkent shahrida ushbu koeffitsiyent juda past ko'rsatkichni tashkil etib, tahlil qilingan barcha yillar davomida 0,1–0,2 birlik oralig'ida bo'lgan va uning o'rtacha qiymati atigi 0,1 birlikni tashkil etgan. Bu holat poytaxtda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan import qilinayotgan mahsulotlar hajmi eksport hajmidan bir necha baravar yuqori ekanligini ko'rsatadi. Mazkur holatga ushbu hududda import tovarlari savdosi va xizmatlarining yuqori ulushi, ya'ni import tovarlarining realizatsiyasi hamda ishlab chiqarish uchun xorijiy butlovchi qismlar va texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi sabab bo'lgan.

O'z navbatida, eng keskin o'zgarish Navoiy viloyatida kuzatilganligini aytish o'rinli. Ushbu viloyatda 2016-yilda 2,1 birlikka teng bo'lgan koeffitsiyent 2025-yilga kelib 0,1 birlikni tashkil etgan, ya'ni 2,0 birlikka kamaygan. Buning sababi sifatida, avvalo, so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish, asosan, tog'-kon sanoati va metallurgiya kabi yirik eksportbop tarmoqlar hisobiga ta'minlanganligi, eksportning katta qismi yirik korxonalarda konsentratsiyalashganligi va buning natijasida kichik biznes hamda tadbirkorlikning eksportdagi ulushi qisqarganligini ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, viloyatda investitsiyalar faolligining oshishi import uskunalar va texnologiyalari ulushini ko'paytirib, kichik biznes va tadbirkorlikda import hajmining eksportga

nisbatan tezroq o'sishiga olib kelgan. Natijada kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksportni qoplash koeffitsiyenti pasaygan.

Shuni aytish zarurki, Surxondaryo va Xorazm viloyatlaridan tashqari, boshqa barcha hududlarda eksportni qoplash koeffitsiyenti tadqiqot davrining boshiga nisbatan oxirida pasayish tendensiyasini namoyon etgan. Nomlari keltirilgan ushbu ikki viloyatda esa ijobiy holat kuzatilib, koeffitsiyent oshganligini aytish mumkin.

Hududlar bo'yicha eng yuqori koeffitsiyent yillar kesimida 0,9–2,1 birlik oralig'ida bo'lib, uning o'rtacha qiymati 1,3 birlikni tashkil etgan. Eng past koeffitsiyentning o'rtacha qiymati esa 0,1 birlikka teng bo'lgan. Umumiy o'rtacha koeffitsiyent 0,4–0,8 birlik oralig'ida shakllanib, tadqiqot davri davomida o'rtacha 0,6 birlikni tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan tahlil ma'lumotlariga asoslanib, shuni aytish mumkinki, 2016–2025-yillarda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport hajmi hamda uning jami eksportdagi ulushi ortib borayotgan bo'lsa-da, eksportni qoplash koeffitsiyentini talab darajasida deb aytish qiyin. Ushbu ko'rsatkichning ayrim yillar va hududlarda pasayishi import dinamikasining yuqori o'sishi bilan izohlanadi. Jumladan, ushbu davrda soha subyektlari faoliyatida ishlab chiqarishni kengaytirish, modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash jarayonlari faollashib, bu, o'z navbatida, import uskunolari, texnologiyalar va xomashyoga bo'lgan talabni keskin oshirgan. Natijada import hajmlari eksportga nisbatan tezroq o'sgan.

Shu bilan birga, kichik biznes va tadbirkorlik eksporti, asosan, past va o'rta qo'shilgan qiymatli mahsulotlar hisobiga shakllanib, yuqori qo'shilgan qiymatli eksport segmentida yirik korxonalar ustunlik qilmoqda. Bu esa eksport tushumlarining o'sishiga qaramasdan, uning importni qoplash darajasini cheklab qo'ymoqda. Demak, eksport hajmi va ulushining o'sishiga qaramay, eksportni qoplash koeffitsiyentining pasayishi kichik biznes va tadbirkorlikda importga yuqori darajada bog'liqlik saqlanib qolayotgani hamda importning o'sish sur'atlari nisbatan yuqoriligi bilan belgilanadi.

O'rganilayotgan davr mobaynida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) eksportini qoplash koeffitsiyentidagi o'zgarishlar siklik va bosqichli tendensiyani hosil qilgan. Ushbu holatni trend tahlili orqali ko'rib chiqish asosida eksportni qoplash koeffitsiyentining rivojlanishini shartli ravishda uchta bosqichga ajratishimiz mumkin (3-jadval).

Umuman olganda, eksportni qoplash koeffitsiyenti respublika bo'yicha "U shaklidagi trend" ko'rinishini hosil qilgan. Ya'ni dastlab pasayish, keyin bir xil darajada o'zgarmasdan turish va so'nggi yillarda tiklanish tendensiyasi kuzatilgan. Shunday bo'lsa-da, eksportni qoplash koeffitsiyentining tiklanish sur'ati koeffitsiyentning ijobiy holatini ifodalovchi bir birlik darajasiga yetmaganligi sababli uni talab darajasida yetarli deb bo'lmaydi. Bu esa kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyatida importga bog'liqlik saqlanib qolayotganligini ko'rsatadi.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida eksportni qoplash koeffitsiyentining trend tahlili²

Bosqich tartibi va nomi	Yillar	Koeffitsiyent darajasi	Holat	Izoh
Birinchi bosqich "Pasayish"	2016 – 2018	0,6 – 0,3	Bu davrda o'sish sur'ati mos ravishda 66,7 va 75,0 foizni tashkil etib, koeffitsiyent pasayib borgan	Mazkur holat tashqi savdoni erkinlashtirilishi, import hajmining eksportga nisbatan tezroq o'sishi hamda kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarda raqobatbardoshligi yetarli darajada shakllanmaganligini bildiradi
Ikkinchi bosqich "Turg'unlik"	2019 – 2021	0,3	Ushbu yillarda respublika bo'yicha koeffitsiyent o'zgarmas holatda saqlanib, hech qanday o'zgarishlar kuzatilmagan.	Eksport va import hajmlari o'rtasida nisbatan muvozanatli o'zgarishlar yuz bergan. Shu bilan birga, 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi ta'sirida tashqi savdo aloqalarining uzilishi va logistika cheklavlari eksport salohiyatining to'liq namoyon bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan
Uchinchi bosqich "Tiklanish"	2022 – 2025	0,4 – 0,5	Bu davrda eksportni qoplash koeffitsiyenti avvalgi yillarga nisbatan bir me'yorda o'sib borgan va bir muncha ijobiy ko'rinish hosil qilgan	Mazkur ijobiy trend eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari ya'ni, eksport logistikasi infratuzilmasining rivojlanishi, tashqi bozorlar diversifikatsiyasi hisobiga eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishning kengayishiga olib kelgan

2 Tadqiqot materiallari asosida muallif ishlanmasi.



O'tkazilgan tahlil natijalari O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida eksportni qoplash koeffitsiyenti yetarli darajada shakllanmaganligini namoyon etib, importga bog'liqlik yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Bu borada Andijon, Surxondaryo va Xorazm kabi hududlarda shakllangan ijobiy tajribalarni boshqa viloyatlarda ham qo'llash kelgusida mazkur ko'rsatkichni oshirish uchun institutsional va iqtisodiy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqotlarimizda O'zbekiston Respublikasi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan eksport faoliyatining holati samaradorlik ko'rsatkichlari orqali tahlil qilindi.

Amalga oshirilgan tadqiqot va olingan natijalardan kelib chiqqan holda, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Hududlarning tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqib, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar va xizmatlar tarkibini qayta ko'rib chiqish hamda diversifikatsiya qilish. Shu bilan birga, hududlarning ixtisoslashuvi asosida "eksport drayverlari"ni shakllantirish. Ya'ni har bir hududning resurs salohiyati va hududiy ustunliklaridan kelib chiqqan holda maqsadli eksport yo'nalishlarini belgilash hamda ularni davlat tomonidan keng ko'lamda qo'llab-quvvatlashga erishish;

Eksport faoliyatining barqarorligini ta'minlash uchun diversifikatsiya darajasini oshirish. Mahsulotlarni qayta ishlash darajasi past va xomashyoga yuqori darajada bog'liq bo'lgan hududlarda koeffitsiyent keskin tebranishlarga ega. Shu bois, yuqori qo'shilgan qiymatli, qayta ishlangan va texnologik mahsulotlar ulushini kengaytirish orqali eksport tushumlarining barqarorligini ta'minlashga erishiladi;

Hududiy eksport infratuzilmasini rivojlantirish va logistika tizimini takomillashtirish. Ayrim hududlarda kuzatilgan yuqori darajadagi og'ishlar va salbiy qiymatlarning sabablaridan biri tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarining cheklanganligidir. Shu nuqtayi nazardan, transport-logistika markazlari, eksportga ixtisoslashgan sanoat zonalarini hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi institutsional mexanizmlarni rivojlantirish talab etiladi;

Eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish orqali kichik biznes subyektlarining tashqi bozor konyunkturasiga moslashuvchanligini oshirish. Bunda eksport kreditlari, sug'urta vositalari va qo'shimcha subsidiyalari orqali tashqi risklarni kamaytirish, shuningdek, valyuta tushumlarining barqarorligini ta'minlash muhim hisoblanadi;

Eksport faoliyatini raqamlashtirish va elektron savdo platformalaridan foydalanish darajasini oshirish. Bu orqali kichik biznes subyektlarining global bozorlarga kirish imkoniyatlari kengayadi, tranzaksion xarajatlar kamayadi va eksport hajmining oshishiga imkon yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes eksporti samaradorligini oshirish institutsional, infratuzilmaviy va moliyaviy chora-tadbirlarni uyg'unlashtirgan holda amalga oshirishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, eksportning iqtisodiy o'sishga ta'sirini kuchaytirish, uning barqarorligini ta'minlash va hududlar o'rtasidagi nomutanosiblikni qisqartirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish – eng muhim vazifamizdir: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi, 2021-yil 20-avgust [Elektron resurs]. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/4551> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
2. Савичев А.А. Концептуальные теоретические аспекты устойчивого развития малого и среднего предпринимательства // Право и проблемы функционирования современного государства: сборник материалов XVII Международной научно-практической конференции. – Махачкала: Апробация, 2015. – С. 39–43.
3. Delgadillo Portocarrero L. Plan estratégico de negocios para la exportación de pequeñas y microempresas // Horizonte Empresarial. – 2016. – Núm. 13. – DOI: 10.31381/horizonte_empresarial.v0i13.483.
4. Емельянова Е.Л. Малый бизнес в экономике самарских муниципалитетов [Электронный ресурс]. – 2006. – № 21 (541). – 7 июня. – URL: https://businesspress.ru/newspaper/article_mld_3_ald_382766.html (дата обращения: 04.08.2026).
5. To'rabekov S.Sh., Muxammedov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini rivojlantirish istiqbollari // Iqtisod va moliya. – 2016. – № 2. – B. 33–38.
6. Abduqahhorov A. Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish // Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2024. – Vol. 3. – Issue 4.
7. G'afurov U.V. Kichik biznes subyektlari eksport faoliyati samaradorligini oshirishning uslubiy masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar: ilmiy elektron jurnal. – 2016. – № 5. – Sentabr-oktabr.
8. Жураханов М.Э. Факторы, влияющие на устойчивое развитие малого бизнеса // European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Vol. 16. – P. 189–195. – URL: <https://ejird.journalspark.org/>



- [index.php/ejird/article/view/644](https://ejird.com/index.php/ejird/article/view/644) (дата обращения: 04.08.2026).
9. Jurakhanov M.E. Small business and its role in the economy // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2024. – Vol. 5. – Issue 11. – P. 47–52. – ISSN 2776-0979. – URL: <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/5099> (accessed: 04.08.2026).
 10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Rasmiy statistik ma'lumotlar [Elektron resurs]. – URL: <https://stat.uz/uz/> (murojaat sanasi: 04.08.2026).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100